



INTERNETDAN TO'G'RI FOYDALANISHNI O'RGATUVCHI MA'LUMOTNOMA ISHLAB CHIQISH

Kutliyev Sardor

TATU UF "RTT" kafedrasi assistenti

Ozodova. Maysara

TATU Urganch filiali 4-bosqich talabasi

Xudoynazarova Zebiniso

TATU Urganch filiali 4-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu ma'lumotnoma internetdan to'g'ri va xavfsiz foydalanishni o'rgatish maqsadida ishlab chiqilgan. Unda internet odob-axloqi, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, zararli kontentdan himoyalanish, ijtimoiy tarmoqlarda xavfsizlik, va soxta axborotlarni aniqlash usullari batafsil yoritilgan. Ushbu qo'llanma foydalanuvchilarning raqamli savodxonligini oshirish va internet muhitida mas'uliyatli xatti-harakatlarni targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Internet xavfsizligi, raqamli savodxonlik, shaxsiy ma'lumotlarni himoyalash, internet odob-axloqi, zararli kontent, ijtimoiy tarmoqlar, soxta axborot, onlayn xavfsizlik, mas'uliyatli foydalanish.

Annotation. This guide is designed to teach proper and safe use of the internet. It provides detailed information on internet etiquette, personal data protection, protection against harmful content, social media security, and methods for identifying fake information. The guide aims to improve users' digital literacy and promote responsible behavior in the online environment.

Keywords: Internet safety, digital literacy, personal data protection, internet etiquette, harmful content, social media, fake information, online security, responsible use.

Аннотация. Данное руководство разработано для обучения правильному и безопасному использованию интернета. В нем подробно освещаются вопросы интернет-этикета, защиты персональных данных, предотвращения вредного контента, безопасности в социальных сетях и способы распознавания ложной информации. Руководство направлено на повышение цифровой грамотности пользователей и продвижение ответственного поведения в онлайн-среде.



Ключевые слова: Безопасность в интернете, цифровая грамотность, защита персональных данных, интернет-этикет, вредный контент, социальные сети, ложная информация, онлайн-безопасность, ответственное использование.

Elektron ta'lim resurslar (ingliz. E-learning resource, inglizcha qisqartma . Electronic Learning resource) - bu o'qitish, o'rganish va baholash, shuningdek tadqiqot maqsadlarida foydalanish mumkin bo'lgan raqamli manbalar.

Elektron ta'lim resursi - Internet va multimedia vositalari yordamida ta'limga oid raqamli o'quv - uslubiy qo'llanmalar, darsliklar, ilmiy - tadqiqot maqolalari, monografiyalar qurish va ta'lim xizmatlarining texnologiyalari (masofaviy o'qishning turli ko'rinishlari) tushuniladi.

Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo'lib, unga ma'lum bo'lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, internet kabi tushunchalardan tashqari, qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma'lumotlar ombori, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar misol bo'lishi mumkin. „XXI asr axborotlashtirish asri“da ta'lim sohasiga elektron ta'limni joriy etish, har bir ta'lim muassasasida: o'qitish va o'qish jarayonining; ta'lim muassasasi boshqarilishining; ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirishini talab qiladi. Bunda har bir ta'lim muassasida individual va maslahat mashg'ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta'limi tizimini tashkil etish kerak. Ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda alohida e'tibor qaratilmoqda.

Afvzalliklari

Elektron ta'lim - axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta'limning turli ko'rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir. ET tashkillashtirishning ko'pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);
- Virtual ta'lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

- Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Dars jarayonida kompyuterdan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilarga interactive yangidan- yangi o'ziga xos qulayliklar yaratadi:

1. Elektron ta'lim resurslarini qurish va foydalanish;



2. Dars sifatini oshirish;
 3. O‘quv jarayonini modernzatsiyalash;
 4. Infotuzilmani qo‘llash ya’ni aqlli auditoriyasini tashkil etish va o‘quvchilarni kompyuter savodxonligini yuksaltirish;
 5. Interfaol metodlarni qo‘llash;
 6. Ta’limga oid innovatsion dasturlardan foydalanish.
- Foydalanish va rivojlantirish.

Ta‘lim tizimiga elektron axborot ta‘lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta‘lim muassasalarining moddiy texnik bazasini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- ETni o‘quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy texnika bazasini yaratish;
- o‘quv jarayoni uchun ET mo‘ljallangan ta‘lim texnologiyalarini yaratish va qo‘llash;
- talabalarni zamonaviy ET texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ETni joriy etish orqali ta‘lim tarbiya va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron ta‘lim resurslar (ETR) - davlat ta‘lim standarti va fan dasturida belgilangan, bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o‘quv jarayonini elektron vositalar yordamida kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o‘rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta‘minlaydigan, talabaning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan elektron ta‘lim - uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, multimediali elektron ta‘lim resurslari, baholash metodlari va mezonlarini o‘z ichiga oladi. ETR deyarli barcha axborotli materiallarni yagona axborot majmuasiga jamlash imkonini beradi. Zamonaviy elektron ta‘lim resurslarning afzalligi talabaga taqdim etilayotgan o‘quv axborotlarini erkin qabul qilish, ularni individuallik xususiyatiga ko‘ra, o‘zlashtirishida pedagogning o‘qitish funksiyasi talabaning o‘ziga o‘tadi. Bunda pedagog o‘quvchini faqat qo‘llab-quvvatlaydi, o‘quv axborotlari oqimidan samarali foydalanish hamda yuzaga keladigan muammollarni hal etishda kerakli ko‘rsatmalar orqali muammoni hal etishda yordam beradi.

Flip PDF PDF hujjatlarini o‘qish uchun yorqin va jozibali formatga aylantirish uchun mo‘ljallangan - elektron buklet bo‘lib, unda qo‘lda haqiqiy bukletni ushlab turgandek varaqlasa bo’ladi.



Ushbu vosita taqdimotlaringizni original va boshqalardan farqli qilishning oson va tezkor usulidir. Qilish kerak bo'lgan yagona narsa - matnli fayllarni Flip PDF-ga import qilish va dastur avtomatik ravishda hujjat tartibini yaratadi va animatsiya ,ovozli ajoyib nashrni taqdim etadi.

Taqdimotning bu usuli ancha yaxshi qabul qilinadi va ish natijasi shunday professional tarzda taqdim etilgani uchun o'z foydasiga ball to'playdi. Ilova sahifalarni aylantirish jarayonini jonlantiradi va sahifalarni varaqlayotganga o'xshaydi.

Flip PDF-da yaratilgan fayllarni internetga ulanmasdan ko'rish mumkin, ular elektron pochta orqali yuborilishi yoki USB flesh-disk yoki CD ga ko'chirilishi mumkin, bu yerda ular juda kam joy egallaydi.

Dasturning interfeysi juda intuitivdir, shuning uchun har bir kishi o'z hujjatlarini bir necha oddiy qadamda va konvertatsiya sozlamalarida yo'qolmasdan yaxshilashi mumkin.

XULOSA

Bugungi kunda yangi texnologiyalardan foydalanish va ularni o'rganish muhim hisoblanadi. Chunki hozir ta'lilda yangi texnologiyalarni qo'llash zarur hisoblanadi. Bu texnologiyalarni o'rganish bo'yicha ko'plab darsliklar va elektron o'quv qo'llanmalar mavjud. Individual loyihaning berilgan "Internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatuvchi ma'lumotnomma ishlab chiqish" mavzusida ham asosiy e'tibor shu masalaga qaratildi.

Ya'ni ishni bajarish davomida quydagи muammo larni yechish maqsad qilib olingan edi:

- Mavzuga oid adabiyotlarni to'plandi va tahlil qilindi ;
- Elektron ma'lumotnomalarga qo'yiladigan talablar bilan tanishildi;
- Elektron ma'lumotnomalarni yaratishda foydalaniladigan dasturiy vositalar tahlil qilindi;
- Elektron qo'llanma yaratish uchun ishlatiladigan dasturlar haqida tushunchaga ega bo'lindi;
- Flip pdf dasturida "Internetdan to'g'ri foydalanishni o'rgatuvchi ma'lumotnomma" yaratildi;

Shuni xulosa qilib aytish kerakki Flip PDF ilovasi o'quv qo'llanma yaratish uchun qulay dastur hisoblanadi. Bunga o'xshagan yangi texnologiyalar juda ko'p



bo'lib ulardan foydalaniб darslarni qiziqarli va mazmunli o'tkazishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Yusupova Sh.B. Elektron ta'lim resurslarini yaratish texnologiyasiл fani bo'yicha ma'ruzalar matni. – Urganch sh., 2018 – 75 b.
2. A.Ne'matov. "Informatika va axborot texnologiyalari" fanidan ma'ruza matni, 3-qism. Toshkent-2010. 220-bet
3. Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalar va tizimlar.O'quv qullanma.Dadabaeva R.A., Nasridinova Sh.T., Shoaxmedova N.X., Ibragimova L.T., Ermatov Sh.T., "Sano-standart",2017. -552b.
4. Axborot-kommunikatsiya texnalogiyalar va tizimlar.O'quv qullanma.Kenjabayev A.T., Ikramov M.M., Allanazarov A.Sh., O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2017-408b.